

# FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash haqida"gi 274- son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, ming birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalgaga oshirilmoqda. O'z o'rniда, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyatga tadbiqu qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxona va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


	<b>Ro'yxatdan o'tgan korxonalar</b>	<b>40 676</b> 116,0 %
	<b>Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar</b>	<b>39 353</b> 113,7 %
	<b>Yangi tashkil etilgan korxonalar (2020-yilda)</b>	<b>5 218</b> 86,9 %

### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalgaga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vegar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

*(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)*



### **Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatları bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyat:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyatini hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamanagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lannagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 5 218 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 3 029 ta, xususiy korxonalar – 1 011 ta, oilaviy korxonalar – 986 ta, unitar korxonalar – 24 ta va boshqalar – 168 tani tashkil etdi.


## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (17,6 %), Qo'qon shahar (12,9 %), Marg'ilon shahar (10,1 %), Uchko'prik tumani (5,2 %), Dang'ara tumani (4,7 %), Oltiariq tumani (4,6 %), Quva tumani (4,6 %), O'zbekiston tumani (4,4 %), Buvayda tumani (4,4 %), Toshloq tumani (4,4 %), Farg'ona tumani (3,8 %), Bag'dod tumani (3,6 %), Rishton tumani (3,3 %), Qo'shtepa tumani (3,2 %), Quvasoy shahar (3,1 %), Beshariq tumani (3,2 %), Furqat tumani (2,4 %), So'x tumani (2,3 %), Yozyovon tumani (2,2 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2020- yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Farg'ona shahar (14,0 %), Qo'qon shahar (10,8 %), Marg'ilon shahar (9,2 %), Uchko'prik tumani (4,6 %), Dang'ara tumani (4,1 %), Oltiariq tumani (5,3 %), Quva tumani (5,5 %), O'zbekiston tumani (4,3 %), Buvayda tumani (4,9 %), Toshloq tumani (5,2 %), Farg'ona tumani (4,0 %), Bag'dod tumani (4,4 %), Rishton tumani (4,2 %), Qo'shtepa tumani (3,5 %), Quvasoy shahar (3,8 %), Beshariq tumani (4,1 %), Furqat tumani (2,7 %), So'x tumani (2,5 %), Yozyovon tumani (2,9 %) hissalariga to'g'ri keladi.



## Oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 4 668 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 071 taga yoki 129,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 466 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 896 taga yoki 125,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 986 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 85 taga yoki 109,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	2 634	3 570	4 466
shu jumladan:			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	254	270	296
Sanoat	1 280	1 640	1 947
Qurilish	35	43	55
Savdo	352	683	1 025
Tashish va saqlash	64	76	79
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	352	489	635
Axborot va aloqa	31	32	35
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	21	32	45
Boshqa turlar	245	305	349

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 450 tani tashkil etib, ulardan 431 tasi yoki 95,8 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 61 taga yoki 115,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 38 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi

*(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)*



■ Qo'shma korxonalar   ■ Xorijiy korxonalar

2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**  
*(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)*

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
<b>Jami</b>	<b>185</b>	<b>254</b>	<b>387</b>	<b>431</b>


*Shu jumladan:*

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2	6	25	26
Sanoat	133	172	229	248
Qurilish	4	7	9	12
Savdo	16	32	68	75
Tashish va saqlash	4	6	9	13
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8	11	13	15
Axborot va aloqa	3	2	4	4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	5	8	8
Boshqa turlar	10	13	22	30

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
ro'yxatdan o'tgan korxonalar soni  
(2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)**

	<b>Jami</b>	<b><i>shundan:</i></b>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>450</b>	<b>303</b>	<b>147</b>
Oltiariq tumani	20	13	7
Qo'shtepa tumani	8	5	3
Bag'dod tumani	10	8	2
Buvayda tumani	8	7	1
Beshariq tumani	6	4	2
Quva tumani	18	12	6
Uchko'prik tumani	15	10	5
Rishton tumani	13	10	3
So'x tumani	4	3	1
Toshloq tumani	14	10	4
O'zbekiston tumani	22	20	2
Farg'ona tumani	25	14	11
Dang'ara tumani	18	9	9
Furqat tumani	6	3	3
Yozyovon tumani	5	1	4
Farg'ona shahar	153	101	52
Qo'qon shahar	58	36	22
Quvasoy shahar	25	20	5
Marg'ilon shahar	22	17	5

## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (2020- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida ro'yxatdan o'tgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**  
*(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)*

	Kichik tadbirkorlik subyektlari soni		01.10.2020 jamiga nisbatan %
	01.10.2019- yil	01.10.2020- yil	
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>28 864</b>	<b>34 420</b>	<b>100,0</b>
Oltiariq tumani	1 273	1 577	4,6
Qo'shtepa tumani	886	1 058	3,1
Bag'dod tumani	934	1 179	3,4
Buvayda tumani	1 298	1 553	4,5
Beshariq tumani	801	1 019	3,0
Quva tumani	1 241	1 544	4,5
Uchko'prik tumani	1 563	1 841	5,3
Rishton tumani	795	1 032	3,0
So'x tumani	635	781	2,3
Toshloq tumani	1 277	1 559	4,5
O'zbekiston tumani	1 262	1 491	4,3
Farg'ona tumani	981	1 226	3,6
Dang'ara tumani	1 426	1 664	4,8
Furqat tumani	626	791	2,3
Yozyovon tumani	532	692	2,0
<b>Farg'ona shahar</b>	<b>5 241</b>	<b>6 005</b>	<b>17,4</b>
Qo'qon shahar	4 108	4 624	13,4
Quvasoy shahar	872	1 081	3,1
Marg'ilon shahar	3 113	3 703	10,9

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2020- yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



2020- yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (13,7 %), Qo'qon shahar (10,8 %), Marg'ilon shahar (9,3 %), Uchko'prik tumani (4,6 %), Dang'ara tumani (4,1 %), Oltiariq tumani (5,4 %), Quva tumani (5,4 %), O'zbekiston tumani (4,3 %), Buvayda tumani (5,1 %), Toshloq tumani (5,2 %), Farg'ona tumani (3,9 %), Bag'dod tumani (4,5 %), Rishton tumani (4,1 %), Qo'shtepa tumani (3,5 %), Quvasoy shahar (3,9%), Beshariq tumani (4,1 %), Furqat tumani (2,7 %), So'x tumani (2,5 %), Yozyovon tumani (2,9 %) hissalariga to'g'ri keladi.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri-axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtি-vaqtি bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.**

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot shows the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The main header reads "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". The left sidebar has a section titled "RASMIY STATISTIKA" with various links like "Elon qilish taqvimni", "Metamalumotlar", etc. The central part of the page shows a form for "Korxonalar" (Enterprises) registration. The form fields include "Xizmatlar ro'yxati", "KTYaDR ma'lumotlari", "Uslubiy materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim etiladigan hisobtolar ro'yxati", and "Korxonalar pasporti". A button labeled "STIR kodini kiritning" is present. On the right, there is a sidebar titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to "Aholini ro'yxatga olish-2022", "Harakatlar strategiyasi", "Press-relizlari", "Choraklik natijalar", "Nashrlari – statistika haqida", "Uslubiy materiallar", and "Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar". The bottom of the sidebar includes a note about using Microsoft Internet Explorer or Windows 7.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'ona viloyat Statistika  
boshqarmasi Statistik  
registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.:73 249-87-34**